

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HAYOT XAVFSIZLIGINI
TA'MINLASHDA O'TKAZILADIGAN MAVZULARARO ALOQADORLIKKA ERISHISH
YO'LLARI**

Abdullayeva Gulruh Abdiazizovna

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi instituti

Dunyoda turli xavf-xatarlar mavjud ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash dolzarb masalalardan biridir. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillaridan bir jihati ham barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan. Yoshlarning ma'naviy ongini bolalikdan boshlab ezgu-g'oyalar bilan to'ldirib borsak, kelajakda turli xavf-xatarlarda, turli tasodiflarda nihoyatda ogoh va e'tiborli bo'lishlariga zamin yarata olamiz.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida hayot xavfsizligini ta'minlash, ularning shu sohadagi dunyoqarashini rivojlantirishda, ayniqsa tarbiyachi-pedagog tomonidan olib boriladigan turli mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega. Ularni o'zaro aloqadorlikda o'rganish orqali bolalarda atrof-muhit, unda sodir bo'ladigan hodisalarni idrok qilish va ulardan himoyalanihga oid ko'nikmalar shakllantiriladi. Tabiat va unda sodir bo'ladigan hodisalarni anglash layoqati tarkib toptiriladi.

XX asr oxirlarida inson hayotida juda ko'p murakkabliklar vujudga keldi. Kundalik turmushda turli-tuman hodisalar yuz berdi. Falokatlar-yong'in, yer silkinishi, kuchli shamol, sel, yer ko'chkisi, suv toshqinlari va h.k. Bu tabiiy ofatlar oqibatida ko'plab odamlar halok bo'ldilar. Halokatlarning asosiy sabablaridan biri oddiy xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslikdadir.

“Moziyga yuz tutgan XX asr oxiri va XXI asr boshi inson uchun anchagina murakkab yashash muhitini yuzaga keltirdi. Hech bir kun o'tmaydiki, dunyoning biror chekkasida avariya, halokat yoki tabiiy ofat sodir bo'lganligi to'g'risidagi xabarni eshitmaylik. Bu hodisalar ko'pincha odamlarning nobud bo'lishlariga ham sabab bo'lmoqda. Ayrim hollarda insonlar o'limining asosiy sabablaridan biri ularning favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishning eng oddiy qoidalarini bilmasliklari yoki bu qoidalarning buzilishi ekanligi umuman kechirilmas xatodir”.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasidan ma'lum bo'ldiki, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari, o'zlarining hayotini xavf ostiga qo'yadigan hodisalardan (er silkinishi, suv toshqini, shamol, yong'in, vulqon otilishi, elektr uskuna, gaz va boshq.) muhofazalanishni bilmaydilar. Bulardan muhofazalanishni o'rganish ahamiyati jihatidan hayot xavfsizligi asoslarini o'rganishning birinchi bosqichi hisoblanadi. Bu masala maktabgacha ta'lim tashkilotlari dasturlariga kiritilmagan. Hayot xavfsizligini ta'minlashga bosqichma-bosqich maktabgacha ta'lim tashkiloti, umumiy o'rta ta'lim maktabi, litsey, kasb-xunar kolleji va oliygohlarda davom ettiriladi. Shu tariqa rivojlanayotgan shaxsning favqulodda vaziyatlardan muhofazalanishga tayyorlash uzluksiz xarakter kasb etadi. Bu yo'nalishlar bolaga ruhiy zarbaning oldini olish,

kundalik hayotga yangicha qarashga odatlanish, texnika bilan to'g'ri muomala qilish madaniyatini, tabiat, atrof-muhitdagi odamlar bilan muloqotga kirishish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Hayot xavfsizligi kursi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'rganiladigan barcha mashg'ulot materiallari bilan bevosita bog'liq. Har bir guruh tarbiyalanuvchilari "Tabiatdagi xavfsizlik haqida tushuncha" o'quv mashg'ulotini o'zlashtiradilar va quyidagi ko'rsatgichlarga ega bo'ladilar:

Kichik guruh (3-4 yosh) - Bolani oddiy usullar orqali xayvon va xashorotlar bilan tanishtirish.

O'rta guruh (4-5 yosh) - Bola tabiat qo'ynida bo'lganida o'simliklarni foydali yoki zararli ekanligini farqlay olish.

Katta guruh (5-6 yosh) - Bola tabiat qo'ynida bo'lganida iste'molga yaroqli va yaroqsiz o'simliklarni, zararli xashorotlarni, xayvonlar bilan ehtiyotkorona muloqotda bo'lishini nazorat qilish.

Tayyorlov guruh (6-7 yosh) - Bola yozgi dam olish maskanlariga borganida kattalar, ota-onalarining ruxsatisiz cho'milmaslik. Chaqmoq, dovullardan o'zini chetga olish. Iste'molga yaroqli va yaroqsiz o'simliklarni, zararli xashorotlarni, xayvonlar bilan ehtiyotkorona muloqotda bo'lishi va h.k.

"Yo'l harakati xavfsizligi" da:

Kichik guruh (3-4 yosh) - Bola piyodalar yo'lagidan yurishi kerakligini bilish. Avtomobillar katta yo'ldan yurishini, svetofor ranglari orqali harakatlanishi to'g'risida tushunchaga ega bo'lish.

O'rta guruh (4-5 yosh) - Bola svetofor signallari orqali yo'lovchilar hamda avtomobillarni harakatlanishi to'g'risida tushunchaga ega bo'lish.

Katta guruh (5-6 yosh) - Bola svetofor signallari orqali yo'lovchilar hamda avtomobillarni harakatlanishi to'g'risida tushunchaga egaligi, bundan tashqari, qaerda "Ovqatlanish shaxobchasi", "Telefon", "O'tish yo'laklari" belgilari mavjud ekanligi to'g'risida ko'nikma hosil qilishi.

Tayyorlov guruh (6-7 yosh) - Bola "To'xtash joyi", "Yoqilg'i qo'yish shaxobchasi", "Ta'qiqlangan belgi", "Velosipedda yurish ta'qiqlangan", "Ikki yoqlama yo'l", "Temir yo'l shlagbaumi" va h.q belgilarini bilishi.

"Qaror qabul qilishni bilish" da:

Kichik guruh (3-4 yosh) - Bola oddiy xavfsizlik qoidalarini bilish.

O'rta guruh (4-5 yosh) - Bola favqulodda vaziyat sodir bo'lganda o'zini qanday tutishni bilish.

Katta guruh (5-6 yosh) - Bola favqulodda vaziyat sodir bo'lganda o'zini qanday tutishni bilishi va to'g'ri qaror qabul qila olishi.

Tayyorlov guruh (6-7 yosh) - Bola favqulodda vaziyat sodir bo'lganda o'zini qanday tutishni bilishi, qaror qabul qila olishi hamda to'g'ri harakatni amalga oshirishi.

"Muloqot ko'nikmalarini hosil qilish" da:

Kichik guruh (3-4 yosh) - Bolada kattalarga nisbatan qiziqish uyg'onadi, unga taqlid qiladi.

O'rta guruh (4-5 yosh) - Bola kaerda o'zini tutishi kerakligini biladi. Kattalar bilan birgalikda harakatni amalga oshiradi.

Katta guruh (5-6 yosh) - Bola tanlash imkoniyatiga ega. Bola o'zini tutishi kerakligini biladi. Kattalar bilan birgalikda harakatni amalga oshiradi.

Tayyorlov guruh (6-7 yosh) - Bola tanlash imkoniyatiga ega. Bola o'zini qanday tutishni bilishi. Kattalar bilan birgalikda harakatni amalga oshiradi hamda ko'maklashadi.

Dasturning asosiy bo'lim va mazmuni quyidagicha:

Bo'lim 1. "Bola va notanish odam".

1.1. Insonning yoqimli ko'rinishi va yaxshi niyatlari o'rtasidagi tafovut haqida. Bola uyda yolg'iz qolganda begona kishi eshikni taqillatsa, bola o'zini qanday tutishi to'g'risida tushuncha berish. "Notanish odam uyga kelganda" mavzusida turli muammoli vaziyatlarni bolalar bilan hal qilish. Bolalar bilan "Men va notanish kishilar" mavzusida turli treninglar o'tkazish.

1.2. Begonalar bilan muloqotning salbiy tomonlari. Notanish odamlar bilan noto'g'ri munosabatda bo'lish turli xavfli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkinligi haqida tushuntirish. Notanish odamlar bilan noto'g'ri munosabatda xavfli vaziyatga tushmaslik choralari haqida tushuncha hosil qilish. Notanish odamlar bilan muomala qilish qonun-qoidalarini mustahkamlash uchun bolalarga oldindan tayyorlangan sahnalashtirilgan o'yinlarni taklif etish, bolaning turli vaziyatlardan mustaqil chiqib keta olishiga sharoit yaratish.

1.3. Notanish odam tomonidan zo'ravonlik xatti harakatlar. Notanish odam tomonidan zo'ravonlik xatti harakatlarni bolalar bilan ko'rib chiqish va muhokama qilish (qo'lini ushlaydi, uning qo'lidan biror shirinlikni oladi, mashina ichiga tortadi, kirish yoki har qanday binoni ichiga itarib yuboradi) va bunday vaziyatlarda to'g'ri muomala qilishga ularni o'rgatish.

1.4. Uyga "begona" kelsa. Bolalarga xavf-xatarlar nafaqat ko'chada yuz berishi mumkin, balki uyda ham kutish mumkin. Turli vaziyatlarni hisobga olgan holda: bola uyda yolg'iz bo'lganda, do'stlari bilan birga bo'lganda, aka-uka, opa-singillari bilan uyda bo'lganda, ota-onalari bilan uyda bo'lganda va h.k. Bunday vaziyatlarda bolaga xulq-atvor qoidalarini o'rgatish.

1.5. Bola va boshqa bolalar, shu jumladan o'smirlar. Bolaga uni xavfli vaziyatga jalb qilishni xohlaydigan boshqa bolalarga, ayniqsa o'smirlarga "yo'q" deyishi kerakligini o'rgatish kerak.

Bo'lim 2. Bola uyda yolg'iz.

2.1. To'g'ridan-to'g'ri taqiqlar va ba'zi narsalarni to'g'ri boshqarish qobiliyati.

Bolalar uchun potensial xavf manbai bo'lgan uy-ro'zg'or buyumlari uch guruhga bo'linadi:

- foydalanish qat'iyan man etilgan buyumlar (gugurt, gaz plitalari, pechka, elektr jixozlari va h.k);

- bolalarning yoshiga qarab, to'g'ri ishlashni o'rganishi kerak bo'lgan narsalar (igna, qaychi, pichoq va h.k);

- kattalar bolalarni bo'yi yetmaydigan buyumlar (maishiy kimyoviy moddalar, dori-darmonlar, spirtli ichimliklar, oziq-ovqat kislotalari, kesish va teshish vositalari va h.k).

Tarbiyachining tushuntirishlaridan bola birinchi guruh buyumlaridan faqat kattalar foydalana olishini o'rganishi kerak. Bolalarni ikkinchi guruh ob'ektlaridan foydalanishga o'rgatish kerak. Uchinchi guruh ob'ektlari bilan bog'liq bolalar xavfsizligi muammolari va ularni saqlash qoidalari tarbiyachi va ota-onalarning birgalikdagi ishlarining mazmuni haqida tushuncha berish.

2.2. Balkon, xavf manbalari sifatida ochiq oyna. Tarbiyachi bolalar diqqatini ochiq deraza va balkonlarni xavfliligiga qaratilgan bo'lishi kerak. Bolalar ochiq deraza, balkonli xonada yolg'iz qolmasliklari, kattalarsiz balkonga chiqishlari yoki ochiq derazaga yaqinlashmasliklari kerak.

2.3. Kundalik hayotda ekstremal vaziyatlar. Bo'lim maktabgacha yoshdagi bolalarni kundalik hayotida ekstremal vaziyatlarda o'zini tutishga o'rgatishga qaratilgan. Masalan, bolalarni yong'in, shikastlanish holatlarida telefondan foydalanishga o'rgatish: o't o'chiruvchilar e'tiborini jalb qilish va yong'in chiqqan taqdirda yordamga chaqirish, jinoyatchilarni uyga kirishi, yong'in boshlanishini oldini olish, o'chirish, o't oldirish manbai ustidan og'ir mato tashlash va boshqalar.

2.4. Militsiya, tez yordam, o't o'chirish bo'limining telefon raqamlari. Telefon orqali o't o'chiruvchilar, tez yordam xodimlarini chaqirishga o'rgatish hamda militsiya xodimlariga qo'ng'iroq qilib, axborotlarni to'liq yetkazish. Shu bilan birga bolalar telefondan foydalana olishlari, yaqin kattalarning raqamlarini bilishlari kerak.

Bo'lim 3. Bola salomatligi.

3.1. Inson tanasining tuzilishi. Bolalarni inson tanasi qanday ishlashi bilan tanishtirish. Anatomicaga oid asosiy bilimlarni qulay shaklda tushuntirish.

3.2. Dori-darmon va vitaminlarning roli. Bolalar bilan kasalliklarning oldini olish va davolashni muhokama qilishda ularga dori-darmonlar haqida asosiy ma'lumotlarni aytib o'tish. Inson sog'ligiga qanday foyda keltirishi va qanday xavf tug'dirishi mumkinligi haqida tushuncha berish. Kasalliklarning oldini olish zarurligini muhokama qilish doirasida vitaminlarning manbalari va afzalliklari, ularning hayot uchun ahamiyati haqida bilim berish.

3.3. Sog'lom oziq-ovqat qiymati haqida. Bolalarga salomatlik va ovqatlanish o'rtasidagi munosabatlar haqida, qaysi ovqatlar eng foydali va zararli ekanligi haqida tushuncha berish.

3.4. Boshqalarning sog'lig'iga g'amxo'rlik qilish. Bolalar salomatlik so'zi nima va qanday kasallik ekanligini bilishlari kerak. Tarbiyachi bolalarni turli surunkali kasalliklar bilan tanishtirib, jismoniy holatining yomonligini hisobga olgan holda

ularga g'amho'rlik qilish kerakligi to'g'risida tushuncha berish. Tarbiyachi bolalarga nafaqat o'z sog'lig'ini, balki boshqalarning sog'lig'ini ham parvarish qilishlari kerakligini aytib o'tishi lozim.

3.5. Insonning ichki tuzilishi. Bolalarga inson tanasining qanday ishlashi haqida gapirib berish. Insonning asosiy tizimlari va organlari haqida tushuncha berish.

3.6. Tirik mavjudotlar uchun qonning ma'nosi. Qon aylanishi haqida gapirganda bolalarga yurak urishini tinglash taklif etiladi. U nasos kabi ishlashi, bolalar yurak mashqlaridan so'ng, dam olishi, uyqudan uyg'ongandan so'ng qanday ishlashini o'zlari nazorat qilib taqqoslashlari taklif etiladi.

3.7. Sabzavot va mevalar. Suyak, tish va qon uchun zarur bo'lgan vitaminlar, mineral tuzlar va turli vitaminli elementlarni asosiy yetkazib beruvchi meva va sabzavotlarning afzalliklari haqida ma'lumot berish.

3.8. Shaxsiy gigiena. Gigiena vositalariga bo'lgan ehtiyojning bolalar tushunchasi va ahamiyatini rivojlantirish.

3.9. Birinchi yordam ko'rsatish qoidalari. Jarohatlar, hasharotlar chaqishi va boshqalarga birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha amaliy ko'nikmalar berish.

Bo'lim 4. Bolaning hissiy farovonligi.

4.1. Bolalar o'rtasidagi nizolar va janjallar. Guruhdagi noqulay muhitning eng yorqin ko'rinishlaridan biri bolalar o'rtasidagi tez-tez nizo va janjallar bo'lib, ba'zan janglarga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi-bolalarni nizoli vaziyatlardan qanday qilib chiqib ketishga o'rgatish. Nizoli vaziyatlar yuzaga kelishining oldini olish ham muhim vazifa hisoblanadi. Ularning maqsadi bolalarni o'z his-tuyg'ularini, xohish-istaklarini ongli ravishda idrok etishga o'rgatish va ularni boshqa kishilar tushuna oladigan tarzda ifoda etishdan iborat. Har qanday nizoli vaziyatlardan bolalarning nizoli hal qilishda tajriba orttirishlari uchun foydalanish lozim.

4.2. Bolalar qo'rquvi. Bolalarning hissiy holati ko'pincha qo'rquvlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi (qorong'ulikdan qo'rqish, diqqat markazida bo'lishdan qo'rqish, ba'zi ertak qahramonlaridan, hayvondan qo'rqish, o'z o'limidan yoki yaqinlarining o'limidan qo'rqish). Shuning uchun bu qo'rquvni jiddiy qabul qilish, ularni mensimaslik yoki kamsitmaslik juda muhimdir.

Bo'lim 5. Bola yolg'iz ko'chada.

5.1. Ko'chadagi xavfsiz xatti-harakatlar. Bolalarni ko'chalardagi xatti-harakat qoidalari, yo'l qoidalari bilan tanishtirish, yo'l, kesishuv nima uchunligini, shahar ko'chalarida transport turlarini ko'rish mumkinligini tushuntirish. Bolalar bilan ko'chada qanchalik tez-tez bo'lib turishlari, nomlarini bilgan avtomobillar, nima uchun kattalarni ruxsatisiz katta yo'llardan yurmaslik va bolalar maydonchasida o'ynashlari haqida suhbatlar uyushtirish.

5.2. Haydovchilar va piyodalar uchun yo'l belgilari. Maktabgacha yoshdagi bolalarga haydovchi va piyodalar uchun mo'ljallangan yo'l belgilarini farqlashga o'rgatish. Bolalarga yo'lni qanday kesib o'tish kerakligini, ularni piyodalar yo'lagi bilan tanishtirish ("zebralar o'tish joyi", svetofofor va h.k), svetofoforning nima ekanligini

tushuntirish, ranglarini, qaysi vaqtda xizmat qilishi haqida ma'lumot berish. Tarbiyachi bolalarni Davlat yo'l harakati xavfsizligi xodimlarining ishi bilan tanishtiradi.

5.3. Bola ko'chada yo'qolib qolsa. Bolalar ko'chada yo'qolib, uyi, ota-onasining oldiga qaysi yo'l bilan borishni bilmay tursa, ular albatta (masalan, ona bolasi bilan o'tib ketayotgan yo'lovchiga, dorixona sotuvchisiga, xarbiy kiyim kiygan fuqaroga) yo'qolib qolganini bildirishi kerak. Ularga o'zi yashaydigan manzili, ota-onasining qo'l telefon raqamini aytishga o'rgatish.

5.4. Transportda xulq-atvor qoidalari. Transportdagi xulq-atvor madaniyati va xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirish.

Bo'lim 6. Bola va tabiat.

6.1. "Uy hayvonlari bizning do'stimiz". Bolalarga hayvonlar bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish to'g'risida tushuncha berish. (Masalan, ko'chada qarovsiz qolgan kuchuk va mushuklarni boqish mumkin emasligi, shuningdek, ularga qo'l bilan tegish, qo'lga olish mumkin emasligini o'qtirish. Ular bilan o'ynaganda ehtiyot bo'lish kerakligini tushuntirish). Ayniqsa, qishloq sharoitida juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishlari kerakligi, hayvonlarning jahlini chiqarmaslik, ularni qiynash mumkin emasligi to'g'risida tushuncha berish.

6.2. Foydali va zaharli o'simliklar. Bolalarga yo'l chetlarida, dalalarda, uy atroflarida o'sadigan o'simliklar zaharli bo'lishi mumkinligi to'g'risida tushuncha berish. Bu o'simliklarning 1-2 vakili bilan tanishtirish. Bolalarda hamma narsani bilib-bilmay iste'mol qilish mumkin emasligi, zararli odatlardan saqlanish lozimligi to'g'risidagi tasavvurini kengaytirish.

6.3. Iste'molga yaroqli va yaroqsiz qo'ziqorinlar. Bolalarda hamma narsani bilib-bilmay iste'mol qilish mumkin emasligi, zararli odatlardan saqlanish lozimligi to'g'risidagi tasavvurini kengaytirish.

6.4. Ekologik vaziyatning yomonlashuvi. Atrof-muhitning tiklanishi. Suv tarkibining, havo muhitining keskin o'zgarishi haqida tushuncha berish.

Bo'lim 7. Suvda, quyoshda.

7.1. Kun tartibi. Bolalarni suvda, quyoshga, cho'milishga, sog'liqqa foydalari haqida xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirish.

7.2. Bolalarning nazariy va amaliy bilim va nazorat qilish monitoringi[26].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, hayot xavfsizligi kursi barcha o'quv mashg'ulotlari bilan uzviy bog'langan. Uni o'rganishda o'quv mashg'ulotlari dasturidagi mavzulararo uyg'unlik tamoyiliga amal qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra bolalar butun davrida oladigan bilimining 70% maktab yoshigacha olishadi. Shu boisdan, "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" dasturi maktabgacha yoshdagi bolalarning aqlini o'stirish, bilim doirasini kengaytirish, zukkolikka, noxush hodisa vavaziyatda o'z xatti-harakatlarini to'g'ri boshqarish, bolalarni mustaqil, erkin, xushyor, ziyarak etib

tarbiyalashga ko'mak beradi va turli xususiyatli favqulodda vaziyatlardan jabrlanuvchi bolalar sonini kamaytirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdukadirova L.K. "Ona va bola salomatligi-millat sog'ligi" Tibbiy ta'limda innovatsiyalarni qo'llash va integral ma'ruzalarni takomillashtirish. Toshkent-2016. 96-97-bet.
2. Abdullayeva G.A. "Xavfdan holi yashamoq" o'quv qo'llanma 2021 y.
3. Abdullayeva G.A. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" asoslarini o'rgatish bo'yicha dastur (maktabgacha yoshdagi bolalar uchun) Toshkent-2021.
4. Abdurahmonov R.A., Mamayev G'I. "Yo'l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari" O'quv qo'llanma.Toshkent-2013. – 88 b.
5. Авдеева Н.Н. Безопасность: учебное пособие по основам безопасности жизнедеятельности детей старшего дошкольного возраста / Н. Н. Авдеева, О. Л. Кнуязева, Р. Б. Стеркина. – М.: ООО «Издательство АСТ-ЛТД», 2015.–170с.
6. Агафонова К.В. Дети и дорожное движение К.В. Агафонова.– М.: Просвещение 2014.–87с.